



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 326 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
Omonova Nilufar Parda qizi	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
Xujanova Shaxina Abdullayevna	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
Ramozonova Bahroy Sadriddinovna	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionallashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
Nuraliyeva Dilshoda Yo'ichiboy qizi	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
V. Sh. Raximov	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
Vasila Yusupova	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish	55
B. X. Sharopov	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi	59
Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari	67
Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
S. A. Qarshiboyev	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
Suyunov Rustam Sadriddinovich	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari	78
Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
Umarov Azizbek Vaxobovich	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda Ahmad al-Farg'oniy asarlarini kompyuter imitatsion modellari asosida o'qitish metodikasi.....	89
S. S. Qulmurodova	
Enhancement of Periodontal Disease Management Strategies in Individuals With Chronic Hepatitis C Following Attainment of a Sustained Virological Response.....	92
Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna	



Epithelial-Mesenchymal Transition's Possible Role in the Pathogenesis of Periodontitis (Literature Review).....	95
Burkhonova Zараfruz Kobilovna	
Gamifikatsiya asosida bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari mexanizmini tatbiq etish	102
Bozorboyev Javlon	
Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari.....	106
Jamilova Dilsuza To'lqin qizi	
Elektrir va magnit maydonida yorug'likning ikkilamchi sinishi.....	110
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Alimardonov Husan Yorqin o'g'li, Ismatullayev Sayfiddin Panji o'g'li	
Lazer texnologiyalarining zamonaviy qo'llanilishi	114
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Muminova Sevinch Kamoliddin qizi, Begnayeve Dilbar Bobonazar qizi	
Fotometrik kattaliklar	117
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Mamatqulova Zebo Komiljon qizi, Xolmaxmatova Sevara Sirojiddin qizi	
Qutublangan yorug'lik manbalari	121
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Turdimurodova Kumushbibi, Normuminova Madina	
Tabiatdagi optik hodisalar	125
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Qudratova Sevinch Otabek qizi, Ulasheva Ruxshona Rustam qizi	
Rus tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanish	129
Erkinova Nozima Utkir qizi	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tadqiq etishning ilmiy-metodologik tahlili	133
Ikmatullayev G'. Z.	
Raqamli ta'lim platformalarida matematika o'qitishda sun'iy intellekt yordamida baholash tizimini takomillashtirish	136
Mirzayeva Shahlo Abduraxmanovna, Akbarov Ulug'bek, Abdivaliyeva Umida	
Linguistic and Pedagogical Foundations of Teaching English as a Foreign Language in The Uzbek Context.....	140
Shokirova Mushtariy	
Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi transformatsion roli	144
Uzoqboyev Xojiakbar Qobuljon o'g'li	
Enhancing Collaborative Learning and Peer Feedback in EFL Classrooms Through Padlet: a Digital Approach to Group Work and Assessment.....	148
Veronica Khatamova	
Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning rasmlar asosida aqliy faoliyatini rivojlantirishning vizual-didaktik texnologiyalarini takomillashtirish.....	152
Meliqo'ziyev Abduraxmonjon Qahramonjon o'g'li	
Emotsional intellekt – hr menejerlarning qaror qabul qilish kompetensiyasining determinanti sifatida	157
Abdukarimov Muhammadjon Muratovich	
O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli-pedagogik modeli: nazariya, metodologiya va amaliyot	162
Islamova Fotima Shamsiddinovna	
Barkamol yosh avlod fazilatlarini shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni.....	170
Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna	
Development of Prevention of Professional-Pedagogical Deformation on the Basis of Health-Saving Technologies in Higher Educational Institutions.....	174
Saidova Parvina Mirzo kizi	
O'zbek xalq pedagogikasi mazmuni asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari	178
Rahmonqulova Guliza Faxriddin qizi	

Bolalarning maktabgacha yosh davrida emotsional rivojlanishiga oid nazariy qarashlar tavsifi.....	182
<i>Abduraxmonova Gulmira Arapjon qizi, Yuldasheva Umida Maxmudovna</i>	
Alohida ehtiyojli bolalar uy ta'limini tashkil etishning korreksion pedagogik tizimining tarkibiy komponentlari.....	186
<i>Jo'raxo'jayev Muhammadazizxo'ja Xalilxo'ja o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalarining ahamiyati.....	190
<i>Umida Marasulova</i>	
Boshlang'ich funksiya va aniqmas integral.....	193
<i>Mirzayeva Shahlo, Isroilova Zahro, Erkinova Shahrizoda, Javliyeva Dilnura</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar adabiyoti kerakmi?!.....	196
<i>Dilfuza Shadiyeva</i>	
Experimental Study on the Psycho-Pedagogical Effectiveness of Mall-Based Multimodal Learning in Developing Pluricultural Competence	200
<i>Azimova Sevara Muzaffar qizi</i>	
Simulyatsion o'quv muhitida fizika o'qituvchilarining o'z-o'zini boshqarish va refleksiv kompetentligini oshirish	205
<i>Muradov Ilxomjon Abduxamid o'g'li</i>	
Ta'lim menejmentida strategik boshqaruv tushunchasining evolyutsiyasi.....	209
<i>Raximjonov Jamshid Rafiqjon o'g'li</i>	
Raqamli kompetentlik tushunchasining ilmiy-nazariy talqini va xorijiy hamda mahalliy tadqiqotlar tahlili	214
<i>Umirov Boboyor Baxtiyor o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyatlar samaradorligini oshirishda pedagogik multimedia vositalaridan foydalanish usullari.....	218
<i>Abdreimova Maftuna O'ktam qizi</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darsliklarining tuzilishi hamda o'quvchilar yoshiga muvofiqligi.....	223
<i>Bobolov Nuriddin Tojiyevich</i>	
Oliy ta'limda pedagoglarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar	228
<i>Isabekov Bahodir Isabek o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik masalalari .	233
<i>Boydavletova Sohiba Abduganiyevna</i>	
Aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	239
<i>G'aybullayev Bobur Nomonjon o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati.....	243
<i>Toshpo'latova Muxlisa G'olib qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va ilmiy-nazariy pedagogik asoslari.....	248
<i>Mamatqulova Saboxat Abduraxmonovna</i>	
Maktabgacha ta'limda monitoring va baholash tizimini takomillashtirish.....	253
<i>Amanova Durdona Kaxramonovna</i>	
O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va estetik tarbiyasida tasviriy san'at va zamonaviy pedagogik texnologiyalar.....	257
<i>Esanova Hulkar Abdurayim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatini tashkil etish	261
<i>Gafurova Dilnoza Saloxiddinovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi xavfsizlik hissiga ta'sirining nazariy va amaliy tahlili	266
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Qoldiboyeva Xayriniso Eldarovna</i>	
Milliy o'yinlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari.....	269
<i>Ismatov Po'latjon Abdumannobovich</i>	
Ta'lim sifatini boshqarish jarayonida kvalimetrik parametrlarini takomillashtirishda xorijiy tajribalarning ahamiyati	273
<i>Karimova Maxbubaxon Mukimjonovna</i>	



Innovatsion ta'lim sharoitida bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli.....	278
<i>Mirzayeva Nigora Bozorovna</i>	
Matematika o'qitishda milliy qadriyatlarni aks ettirish	282
<i>Mirzayeva Shahlo, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi,</i> <i>Muxtorova Sevinch Asad qizi, Xolboyeva Mushtariy Zayniddin qizi</i>	
Ingliz tilida fe'l frazeoformalarining morfologik tuzilishiga xos umumiy xususiyatlar.....	285
<i>Jo'rayeva Nargiza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini o'stirishda interaktiv metodlarning ahamiyati.....	289
<i>Ramazonova Munisa Hoshim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining lug'at boyligini oshirishda intellektual o'yinlar va interfaol usullardan foydalanish.....	294
<i>Raxmonova Gulrux Ubaydullayevna, Ibragimova Dildora Turabovna</i>	
Maktabgacha ta'limda pedagoglar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda uslubiy xizmat va hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi.....	298
<i>S. A. Rahmonberdiyev</i>	
Yoshlarni destruktiv submadaniyatlar ta'siridan himoyalashning innovatsion pedagogik usullari	304
<i>Xasanova Marxabo Turayevna</i>	
Социально-психологические особенности домашнего насилия в условиях трансформации семьи и цифровизации общества	308
<i>Абдукадилова Лаура Юльбарсовна, Абдуллаева Азиза Комилжон кизи</i>	
Педагогические основы развития инновационной компетентности педагогов в системе дошкольного образования.....	315
<i>Гульнара Ахтямовна</i>	
Роль учебного процесса и творческой деятельности в сохранении психологического равновесия.....	320
<i>Коршубаева Рано Хазраткуловна</i>	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA EKSPERIMENTAL-TAJRIBA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

UDK: 373.3

Gafurova Dilnoza Saloxiddinovna

Samarqand davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrası p.f.f.d. (PhD)



Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatini tashkil etishning pedagogik ahamiyati hamda uning bolalar rivojlanishiga ijobiy ta'siri yoritilgan. Eksperimental faoliyat orqali bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, kuzatuvchanlik va kognitiv faollikni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, bolalar eksperimenti, ijodkorlik, tasavvur, his-tuyg'ular, mantiqiy tafakkur, kognitiv faoliyat, mustaqillik, ta'lim-tarbiya jarayoni.

Abstract: The pedagogical significance of organizing experimental and practical activities in preschool educational institutions and their positive impact on children's development are highlighted. Particular attention is given to the development of independent thinking, creativity, observation skills, and cognitive activity in children through experimental activities.

Key words: preschool education, children's experimentation, creativity, imagination, emotions, logical thinking, cognitive activity, independence, educational process.

Аннотация: Освещаются педагогическое значение организации экспериментально-опытнической деятельности в дошкольных образовательных организациях, а также её положительное влияние на развитие детей. Особое внимание уделено развитию у детей самостоятельного мышления, творческих способностей, наблюдательности и познавательной активности посредством экспериментальной деятельности.

Ключевые слова: дошкольное образование, детский эксперимент, творческие способности, воображение, чувства, логическое мышление, познавательная деятельность, самостоятельность, образовательный процесс.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan eksperimental-tajriba faoliyati bolalarda kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash va mantiqiy tafakkurni shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Tajriba jarayonida bolalar atrof-muhit hodisalarini amaliy faoliyat orqali o'rganib, bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Mazkur faoliyat ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, bolalarning kognitiv faolligini rivojlantirishga ham yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalar eksperimenti – bu bolalarning atrof-muhitni mustaqil o'rganishi, kuzatishi va oddiy tajribalar orqali bilim olish jarayonidir. Bolalar eksperimenti jonli kuzatish va bola tomonidan o'tkaziladigan tajribalarni o'z ichiga olgan murakkab, ko'p qirrali jarayondir. Bu usul, ayniqsa, Fridrix Frebel va keyinchalik Maria Montessori pedagogikasida muhim o'rin egallaydi. Eksperiment (tajriba) – bola o'zi sinab ko'rish, tekshirish va xulosa chiqarish orqali bilim oladigan faoliyatdir. Oddiy qilib aytganda, bola “nega?” degan savolga o'zi javob topadi.

Eksperimental faoliyatda bola o'zini o'rab turgan narsa va hodisalarni to'liqroq bilish va o'zlashtirish uchun turli yo'llar bilan mustaqil ta'sir ko'rsatib, o'ziga xos tadqiqotchi vazifasini bajaradi. Eksperimental faoliyat jarayonida bola tajriba orqali hal qiladigan, tahlil qilish, xulosa chiqarish, muayyan qonun yoki hodisa g'oyasini mustaqil ravishda o'zlashtirish imkonini beruvchi vaziyatlar yaratiladi.

A.N. Poddyakovning ilmiy qarashlarida “bolalar eksperimenti” bolalarning faol-o'zgartiruvchi faoliyati sifatida tavsiflanib, o'rganilayotgan obyektlarni sezilarli darajada o'zgartirishi ta'kidlanadi. Olimning fikricha, bu

haqiqatan ham bolalik faoliyati bo'lib, u erta yoshda yuzaga keladi va butun maktabgacha yosh davomida kattalar yordamisiz, ba'zan esa ularning taqiqlariga zid ravishda jadal rivojlanadi. Bolalar eksperimenti aqliy faoliyatning yangi tomoni – "noaniq bilimlar bilan harakat qilish qobiliyati"ni rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bola tadqiqot faoliyatiga, xususan, eksperimentga katta qiziqish bildiradi. Jon Dyui tadqiqot faoliyatini "biror narsa qilish" kontekstida bolalar faoliyatining alohida turi sifatida baholagan. U tadqiqot faoliyatini bolaga tabiatan xos bo'lgan instinktlar bilan bog'laydi. Darhaqiqat, bolalar tabiatan tadqiqotchidirlar. Yangi tajribalarga bo'lgan so'nmas qiziqish, doimiy tajriba o'tkazishga intilish va dunyo haqida mustaqil ravishda yangi ma'lumotlarni izlash bolalar xatti-harakatining muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Tadqiqot, eksperiment va qidiruv faoliyati bolaning tabiiy holati bo'lib, u dunyoni anglash va uni bilishga intiladi.

Tadqiq qilish, kashf etish va o'rganish noma'lumlik sari tashlangan qadamdir. Bu bolalar uchun o'ylash, sinash, izlash, tajriba qilish va eng muhimi, o'zini namoyon etish imkoniyatini yaratadi. Eksperimental faoliyat jarayonida maktabgacha yoshdagi bola kuzatish, fikrlash, taqqoslash, savollarga javob berish, xulosalar chiqarish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni o'rganadi. Bolalarning tizimlashtirilgan qidiruv va kognitiv bilimlarini rivojlantirish, eksperimental harakatlarni shakllantirish hamda mantiqiy fikrlash asoslarini tarkib toptirish maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi va maktabga tayyorgarligini ta'minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar haqidagi tasavvurlarni o'zlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Atrof-muhit bilan amaliy munosabatda bo'lish usullarini egalash bolaning dunyoqarashini shakllantirib, uning shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi. Mashhur pedagog-psixolog Pavel Petrovich Blonskiy: "Bo'sh bosh aqlga sig'maydi: qanchalik ko'p tajriba bo'lsa, fikr yuritish qobiliyati shunchalik yuqori bo'ladi", – deb ta'kidlagan. Bolalarga bilim berish va ularning tafakkurini qiziqarli mazmun bilan boyitish maqsadida qum, havo, suv, soya va magnit bilan bog'liq turli tajribalar o'tkaziladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatini tashkil etish jarayonlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, tahlil, taqqoslash va umimlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning eksperimental faoliyatga bo'lgan qiziqishi hamda uning kognitiv rivojlanishga ta'siri ilmiy manbalar asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida bolalarning qum, suv, havo, soya va magnit bilan ishlash jarayonidagi faoliyati kuzatilib, olingan natijalar pedagogik jihatdan tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatini amalga oshirishdan maqsad:

- bolalarda eng muhim kompetensiyalarni shakllantirish, ularni tadqiqotchi va ixtirochi sifatida fikrlashga o'rgatish, ixtirochilik hamda tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish, atrof-muhitga nisbatan qiziqish uyg'otish;
- bolalarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish (tahlil, sintez, tasniflash, taqqoslash, umimlashtirish);
- moddalarning turli xossalari (qattqlik, yumshoqlik, oquvchanlik va boshqalar), harakatning asosiy turlari va xususiyatlari (tezlik, yo'nalish) bilan tanishtirish;
- fizik hodisalar (magnit va quruqlikdagi tortishish, elektr, yorug'likning aks etishi va sinishi va boshqalar) haqida tushuncha berish;
- bolalarda elementar geografik tasavvurlarni shakllantirish;
- atrofdagi dunyoga hissiy va qadriyatli munosabatni rivojlantirish;
- eksperiment va tajribalar o'tkazishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Tajribani tayyorlash algoritmi quyidagilardan iborat:

1. Tadqiqot obyektini tanlash.
2. Dastlabki ishlar (ekskursiyalar, kuzatishlar, suhbatlar va boshqalar).
3. Tajribaning turi va predmetini aniqlash.
4. Bolalar bilan ishlashning maqsad va vazifalarini belgilash.
5. Dastlabki tadqiqotni amalga oshirish (mini-laboratoriya yoki ilmiy markazda).



6. Mavsum, bolalarning yoshi va o'rganilayotgan mavzuni hisobga olgan holda qo'llanma hamda jihozlarni tanlash va tayyorlash.
7. Kuzatish natijalarini turli shakllarda umumlashtirish (kuzatish kundaliklari, fotosuratlar, chizmalar va boshqalar).
8. Natijani prognoz qilish.
9. Harakatlar ketma-ketligini aniqlash.
10. Xavfsizlik qoidalarini belgilash.

Bolalar eksperimentining tuzilishi quyidagicha:

- hal qilinishi kerak bo'lgan muammoni bayon etish (kichik va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalarda pedagogik yordam asosida, katta maktabgacha yoshda mustaqil ravishda);
- vazifa va maqsadni belgilash (muammoni hal qilish uchun nima qilish kerakligini aniqlash);
- gipotezalarni ilgari surish (natijani prognoz qilish, ehtimoliy yechimlarni izlash);
- tajriba jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish;
- gipotezani tekshirish va tajribani o'tkazish (pedagog rahbarligida ma'lumotlarni to'plash hamda harakatlarda amalga oshirish);
- natijalarni tahlil qilish va xulosalarni shakllantirish.

Ekspirimental faoliyat sohalari quyidagilarni qamrab oladi.

Yovvoyi tabiat obyektlari – hayvonot dunyosi: bolalar, odatda, hayvonlarga katta qiziqish bildiradilar va ularning xatti-harakatlarini kuzatishga alohida e'tibor qaratadilar. Turli tabiiy-iqlim zonalari fasllarining xarakterli xususiyatlari, tirik organizmlarning xilma-xilligi hamda ularning atrof-muhitga moslashuvi o'rganiladi. Jonsiz tabiat: havo, tuproq, suv, magnit, tovush va yorug'lik.

Jonsiz tabiat obyektlari – toshlar, muz bo'laklari, daryolar va boshqalar. Bola jonsiz tabiat obyektlarini o'zi uchun maqbul bo'lgan turli usullar orqali o'rganadi, shu jumladan, ularning yashirin xususiyatlari va ichki tuzilishini tushunish maqsadida ularni o'zgartirishga harakat qiladi. Odam: organizm faoliyati, inson tomonidan yaratilgan dunyo, materiallar va ularning xususiyatlari. Bolalar inson xulq-atvori me'yorlari va qoidalarini, shuningdek, ularning buzilishining mumkin bo'lgan oqibatlarini tushunish uchun turli ijtimoiy tadqiqot strategiyalaridan foydalanadilar.

Sun'iy obyektlar – sun'iy narsalarni o'rganishda ularning inson hayotidagi o'rni, maqsadi va vazifalari tahlil qilinadi.

Ekspirimental-tajriba faoliyat turlarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llash davomida tarbiyachi quyidagi metodlardan foydalanishi mumkin: suhbat, kuzatish va modellashtirish.

Suhbat davomida bolalarga tajribaning hayotimizdagi foydasi, afzalliklari va salbiy jihatlari tushuntirib borilishi lozim. Bola ushbu hodisani sinchkovlik bilan kuzatadi, miyasida tahlil qiladi va xotirasida saqlab qoladi hamda uy sharoitida oila a'zolariga bajarib ko'rsatadi. Ekspirimental-tajriba faoliyatining afzalligi shundaki, bolalarda o'rganilayotgan obyektning hajmi, rangi, shakli va xossalari haqida real tasavvur shakllanadi. Bir faoliyatning o'zidayoq bolaning olgan bilimlari mustahkamlanadi. Ekspirimental-tajriba faoliyati bolalarning xotirasini boyitish, diqqatini jamlash, faolligini oshirish va ishchanligini rivojlantirish kabi psixik hamda fiziologik xususiyatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ekspirimental-tajriba faoliyati davomida bolalar miyasida quyidagi psixik operatsiyalar amalga oshadi: analiz va sintez jarayoni; ma'lum bir hodisa yoki predmetni boshqa hodisa yoki predmet bilan taqqoslash; oldingi faoliyatlarda olingan bilimlarni umumlashtirish; xotira faoliyatini rivojlantirish.

Noan'anaviy eksperimental mashg'ulotlarning afzalliklari quyidagilardan iborat: materialni yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi; bolalarga zarur tushunchalar o'z vaqtida tushuntiriladi; material qiziqarli tarzda taqdim etiladi; o'tilgan mashg'ulotlar bolalar xotirasida uzoq vaqt saqlanadi; diqqat jamlanadi; mustaqil va tanqidiy fikrlash rivojlanadi.

Tajriba-eksperimental faoliyatda atrof-muhit haqidagi tasavvurlarni shakllantirish jarayoni bolalarda tabiat va muhit haqidagi tushunchalarni tajriba asosida hosil qilishga qaratilgan. Bola kuzatadi, sinab ko'radi va natija chiqaradi. Ushbu yondashuv Fridrix Frebel pedagogikasiga asoslanadi. Bolalarda atrof-muhit haqidagi tasavvurlarni shakllantirish uchun tabiiy hodisalar – suv, havo, yorug'lik, issiq va sovuq; sabab-oqibat bog'lanishlari – “Agar suv muzlasa, nima bo'ladi?”; jonli va jonsiz tabiat – “o'simlik o'sadi, tosh o'smaydi” kabi misollar muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'limda, asosan, boshlang'ich tajribalardan foydalaniladi. Bu tajribalar jarayonida ilmiy kashfiyotlar emas, balki elementar tushunchalar va xulosalar shakllanadi. Mustaqil izlanishga faol qiziqish rivojlanadi. Tajribalar barcha faoliyat turlarini va ta'limning barcha jihatlarini birlashtirishga, kuzatuvchanlik va izlanuvchanlikni rivojlantirishga, dunyoni bilish istagini, kognitiv qobiliyatlarni, ixtirochilikni hamda qiyin vaziyatlarda nostandart yechimlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bolalar o'zlarini olim, tadqiqotchi va kashfiyotchi sifatida his qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, kattalar o'qituvchi emas, balki teng huquqli sherik sifatida ishtirok etadilar va bu holat bolaga o'z tadqiqot faoliyatini erkin namoyon qilish imkonini beradi.

Ukrainalik pedagog V.A. Suxomlinskiy tabiatning bolaning axloqiy rivojlanishiga ta'siriga alohida ahamiyat bergan. Uning fikricha, bolalar tafakkuri, his-tuyg'ulari va ijodkorligi asosida tabiat yotadi. Olim tabiatning o'zi tarbiya bermasligini, balki u bilan o'zaro munosabatda bo'lish orqali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Shuningdek, bolaning tabiatni anglashga va uning go'zalligini his qilishga o'rganishi uchun bu xususiyatni bolalardan singdirish zarurligini qayd etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar juda kuzatuvchan bo'ladilar. Atrofdagi dunyoni kuzatib, ular o'z xulosalarini chiqaradilar va sabab-oqibat munosabatlarini aniqlaydilar. Tug'ilganidan boshlab bolalar turli tabiat hodisalariga duch keladilar: yoz kunlari quyoshni ko'radilar va iliq shamolni his qiladilar, qish oqshomlarida esa oy va yulduzlarga boy qorong'i osmonga hayrat bilan qaraydilar, sovuqni his qiladilar. Ular tosh yig'adilar, bo'r bilan asfaltga chizadilar, qum va suv bilan o'ynaydilar. Obyektlar va tabiat hodisalari ularning hayotiy faoliyatining ajralmas qismiga aylanadi va kuzatish obyektiga aylanadi. Bizning vazifamiz bolalarda kuzatish asosida kognitiv tashabbusni shakllantirish, narsa va hodisalarni taqqoslash, ular o'rtasidagi oddiy aloqalar va munosabatlarni aniqlash hamda dunyo haqidagi tasavvurlarni tartibga solishdan iboratdir.

V.A. Suxomlinskiy: "Bilim berishdan oldin fikrlashga, idrok etishga va kuzatishga o'rgatish kerak", – deb ta'kidlagan. Ko'plab pedagoglarning asarlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni mazmunli mashg'ulotlarga jalb qilish zarurligi qayd etiladi. Bunday mashg'ulotlar davomida bolalar obyektlarning yangi xususiyatlarini, o'xshashlik va farqlarini kashf qiladilar hamda mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

A.N. Poddyakov maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eksperimental faoliyatning ikkita asosiy turini ajratadi:

Faoliyat jarayonida tashabbus to'liq boladan kelib chiqadi. Bola o'z faoliyatini mustaqil ravishda tashkil etadi, maqsadlar qo'yadi, ularga erishish yo'llari va vositalarini izlaydi. Bu holatda bola eksperiment jarayonida o'z ehtiyojlari, qiziqishlari va irodasini namoyon qiladi.

Bolaga muayyan harakatlar algoritmini o'rgatish kattalar tomonidan tashkil etiladi. Bunda bola kattalar tomonidan oldindan belgilangan natijalarga erishadi.

Bolalar eksperimenti alohida faoliyat turi emas. U bolalar faoliyatining barcha turlari bilan chambarchas bog'liq: maxsus tashkil etilgan, birgalikdagi va mustaqil faoliyatlar bilan uyg'unlashadi.

A.N. Poddyakov tomonidan ishlab chiqilgan "Eksperimental faoliyat orqali bolalarning bilim faolligini rivojlantirish prinsiplari" quyidagilardan iborat:

- ilmiylik prinsipi – bolalarga inkor etib bo'lmaydigan, ishonchli ilmiy bilimlar berilishi;
- foydalanish imkoniyati prinsipi – barcha bilimlar maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi;
- rivojlantiruvchi ta'sir prinsipi – bilimlar bolaning bilish va tadqiqot faoliyati usullarini egallashiga xizmat qilishi;
- tizimlilik prinsipi – barcha bilimlarning o'zaro bog'liqligi va dunyo haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantirishi;
- faol ta'lim prinsipi – bolalarga tayyor bilimlarni berish emas, balki tadqiqot faoliyatini tashkil etish orqali ularning mustaqil "kashfiyotlar" qilishiga imkon yaratish.

A.N. Poddyakovning ta'kidlashicha, kognitiv faoliyatning umumiy strategiyasi har qanday yangi mavzu bilan tanishishda bolada yaxlit tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi. Ushbu strategiya atrofdagi dunyoni bilishning muayyan ketma-ketlikda amalga oshirilishiga asoslanadi: obyektни yaxlit holda idrok etish, uni boshqa obyektlar tizimida ko'rib chiqish va keyinchalik tahlil qilish.

Bolalar uchun ochiq va qiziqarli bo'lgan tadqiqot mavzulari xilma-xildir. Jumladan:

1. Suvning xossalari.
2. Havoning xossalari.
3. Tuproqni o'rganish – qum va gil.



4. Toshlarini o'rganish.
5. O'simliklar bilan tajribalar: ko'payish, o'sish va rivojlanish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bolalarning kognitiv faolligini rivojlantirish va eksperimental mashg'ulotlarga qiziqishini oshirish uchun kichik laboratoriyalarni turli jihozlar bilan boyitish hamda mazkur muhitni doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

A.N. Poddyakovning ta'kidlashicha, "bolalar eksperimenti maktabgacha yoshdagi rivojlanish davridagi yetakchi faoliyatlardan biri bo'lib, bola obyektни amaliy faoliyat jarayonida o'rganadi". Bola kognitiv-izlanish funksiyasini bajaradi va obyektning mazmunini ochib beruvchi sharoitlarni yaratadi. Eksperimental faoliyat barcha turdagi faoliyat va ta'lim jihatlarini birlashtirib, kuzatuvchanlik, izlanuvchanlik, dunyoni bilishga intilish, kognitiv qobiliyatlar, ixtirochilik hamda nostandart yechimlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gafurova D. S. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari / O'quv qo'llanma. "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti. 2023. 314-bet.
2. Gafurova Dilnoza Salokhiddinovna. Advantages of Using STEAM Technology in Preschool Educational Organization. – 2023.
3. Gafurova D. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda STEAM texnologiyasining ahamiyati. O'zbekiston Milliy universiteti xabarlar. 2024. [1/5/1]. ISSN 2181-7324. 94–96-betlar.
4. Эвдокимова Е. С. Технология проектирования в ДОУ / Е. С. Эвдокимова. – М.: ТЦ Сфера, 2006. – 64 с.
5. Савенкова Л. Г. Исследовательская и проектная деятельность детей дошкольного возраста. – Москва: Просвещение, 2020.
6. Ксенофонтова М. Инженерное мышление в дошкольном возрасте. – Москва, 2021.
7. Яковлева Н. В. STEAM-образование в дошкольных организациях. – Москва: Педагогическое общество, 2020.
8. Yakman G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education. – STEAM Education Journal, 2010.
9. Волосовец Т. В., Маркова В. А., Аверин С. А. STEM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. Парциальная модульная программа развития интеллектуальных способностей в процессе познавательной деятельности и вовлечения в научно-техническое творчество: учебная программа / Т. В. Волосовец и др. – 2-е изд., стереотип. – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2019. – 112 с.: ил. Рецензия № 224/07 от ФГБОУ ВО "ИИДСВ РАО". Протокол № 7 от 26 сентября 2017 г. заседания Учёного совета ФГБОУ ВО "ИИДСВ РАО".

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.